O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI
**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

**"TASDIQLAYMAN"**
Toshkent davlat yuridik
universiteti rektori v.v.b
I.R.Rustambekov
________________
2023-yil «30» avgust

# MIKROIQTISODIYOT VA MAKROIQTISODIYOT

Moduli (sillabusi)
10 KREDIT (10 ECTS)

| | | | |
|---|---|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 400 000 | – | Biznes, boshqaruv va huquq |
| **Ta'lim sohasi:** | 420 000 | – | Huquq |
| **Ta'lim yo'nalishi:** | 60421200 | – | Davlat boshqaruvi |

**Modulga haqida**

*Modul kodi:* MИКИҚТ1А10
*Modul nomi:* Mikroiqtisodiyot va makroiqtisodiyot
*Semestr / O'quv yili:* 1-2 / 2023-2024
*Kafedra nomi:* Davlat boshqaruvi
*Soatlar / kreditlar soni:* 10 kredit (100 soat)
*Modul rahbarlari / O'qituvchilar (Instruktorlar):*
PhD - O'ktamova Nozima Narzulla qizi
(nozimauktamova@umail.uz)
*Qabul soatlari:* Tasdiqlangan reja-grafik asosida.
*Tasdiqlangan:* Universitet Kengashining 2023-yil 30-avgustdagi 1-son yig'ilish bayonnomasi

**Toshkent-2023 y**

## I. MODUL TAVSIFI

"Mikroiqtisodiyot va makroiqtisodiyot" moduli orqali talabalarga alohida bir firmani, korxonani va bozor subyektlarinining iqtisodiy faoliyati xatti-harakatining ilmiy asoslari, turli xil bozor modellarida narx shakllanish sharoitlarini o'rganishlari va mahsulot ishlab chiqarishda optimal hajmini topish, iqtisodiy subyektlarning davlat va xalqaro tashkilotlar tomonidan soliqlar orqali bozorni boshqarishning oqibatlari bashorat qilish, makroiqtisodiy muvozanat, mamlakatning budjet-soliq va pul-kredit sohalari tavsifi, iqtisodiyotga inflyasiya va ishsizlikning ta'siri kabi fundamental bilimlar o'rganiladi. Mikroiqtisodiy va makroiqtisodiy fundamental bilimlar jamiyat iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy hayotida muhim o'rin tutadi. Mukammal mikroiqtisodiy va makroiqtisodiy bilimlarga ega bo'lish mamlakatning iqtisodiy tizimini tushunish, tahlil qilish va baholash ko'nikmalarini shakllantiradi. Bu esa o'z navbatida, mutaxassis kadrlar tomonidan davlat boshqaruvini yuritishda muhim ko'nikmalarning shakllanishini keltirib chiqaradi.

Shu bois, talabalardan mikroiqtisodiyot va makroiqtisodiyot asoslariga doir fundamental nazariy bilimlarga hamda olingan bilimlarni amaliy muammolar, hayotiy faktlarga qo'llash ko'nikmasiga ega bo'lish talab etiladi.

Ushbu modul 20 ta mavzuni o'z ichiga olgan bo'lib, mikroiqtisodiyot va makroiqtisodiyotga oid fundamental bilimlarni qamrab oladi. Birinchi semestrdagi mavzular asosan mikroiqtisodiyot kursiga bag'ishlangan bo'lib, unda talabalarga alohida bir firmaning, korporatsiyaning va boshqa bozor subyektlarining iqtisodiy faoliyati (xatti-harakati) asoslari o'rgatiladi. Ikkinchi semestrdagi mavzular makroiqtisodiyot kursiga bag'ishlangan bo'lib, unda talabalarga umumiy holatda mamlakat iqtisodiy tizimlarining yuritish qonuniyatlari, davlat tomonidan iqtisodiyotni boshqarish asoslari bo'yicha bilim beriladi.

Modul o'zbek va rus tillarida olib boriladi.

## II. MODULNING ASOSIY TALABLARI

Mazkur o'quv kursi bakalavriatning 1-kurs talabalariga mo'ljallangan bo'lib, ulardan boshlang'ich iqtisodiy tushuncha va terminlarni bilishlari hamda umumta'lim fanlaridan matematikaga oid bilimilari yaxshi darajada bo'lishligi, shuningdek og'zaki va yozma o'zbek tilini puxta bilish talab etiladi.

## III. MODUL TARKIBI

**10 ECTS. 100 auditoriya soati.**

| Ma'ruza | Seminar / Amaliy mashg'ulot | Laboratoriya | Assessment | Mustaqil ta'lim | Jami |
|---|---|---|---|---|---|
| 40 | 50 | 0 | 10 | 150 | 250 |

## IV. MODULNING MAQSADI

“Mikroiqtisodiyot va makroiqtisodiyot” modulining asosiy maqsadi talabalarda iqtisodiy hodisa va jarayonlar xususiyatini tushunish hamda ularni normativ-huquqiy hujjatlar asosida tahlil qila olish yuzasidan zarur bilim, ko‘nikma va malakani shakllantirishdan iborat.

## V. MODULDAN KUTILGAN NATIJALAR (MKN)

Modulni yakunlash natijasida o‘quvchilar:

1) iqtisodiyotning eng muhim kategoriyalari (mavzulari) haqida ma’lumotga ega bo‘ladilar (MKN I);

2) iqtisodiyot va iqtisodiyotni boshqarishga doir qonun hujjatlari (milliy va xalqaro) bilan ishlay oladilar (MKN II);

3) iqtisodiyot va uning rivojlanishi qonuniyatlarini tahlil eta oladilar (MKN III);

4) iqtisodiy muammolarning yuzaga kelishi va yechimi, asosiy ta’limot va nazariyalarni tushunish orqali iqtisodiyotning boshqarilishi va bozor islohotlarini chuqurlashtirish va bozor munosabatlarini takomillashtirish bilan bog‘liq ilmiy va amaliy faoliyatni mustaqil tashkil etish ko‘nikmasiga ega bo‘ladilar (MKN IV);

## VI. ASSESSMENT VA BAHOLASH

O‘quvchilar yuqorida qayd etilgan natijaga erishganliklari quyidagilar orqali baholanadi:

1) **MKN IV** va **MKN V** oraliq nazorati orqali baholanadi. Buning uchun talabalarga belgilangan muddatlarda javoblarni yozma (elektron) tarzida tayyorlash va platformaga yuklash uchun oldindan ikkita nazariy savol va muammoli vaziyat (case-study) yoki individual loyiha ishi (project-based work) beriladi. Talabalar nazariy savol va muammoli vaziyat (case-study) yoki individual loyiha ishi boyicha javob yozishadi, o’zlarining qarashlarini asoslab berishadi, davlat boshqaruvi sohasidagi islohotlarga oid qonunchilikni tahlil qilishadi, ilmiy munozaraga kirishadi, amaliy misollar va statistik ma’lumotlardan foydalanishadi hamda davlat boshqaruvi sohasidagi vujudga keladigan muammoli vaziyatni hal etish yuzasidan mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosa qilish va taklif ishlab chiqish ko’nikma hamda qobiliyatini namoyon qilishadi.

Oraliq nazorati uchun jami 40 ball beriladi. Bu modul bo‘yicha umumiy to‘plash mumkin ballning 40 %ni tashkil etadi. Oraliq nazorati uchun baholash mezonlari semestr 1-oyining 10-sanasiga qadar o‘quvchilarga professor-o‘qituvchilar tomonidan yetkaziladi. Oraliq nazorati baholash mezonlari sillabusning tarkibiy qismi deb qaraladi.

2) **MKN I, MKN II, MKN III** yakuniy nazorat orqali baholanadi uchun o‘quvchilarga keys va u bilan bog‘liq nazariy va amaliy savollar beriladi. O‘quvchilar

savollarga javobni 2 soatlik vaqt oralig'ida auditoriya sharoitida hamda kuzatuv ostida komyuterda universitetning elektron ta'lim platformasida yozadilar.

Yakuniy nazorati uchun jami 60 ball qo'yiladi. Bu modul bo'yicha umumiy to'plash mumkin ballning 60 %ni tashkil etadi. Yakuniy nazorati uchun baholash mezonlari semestr 1-oyining 10-sanasiga qadar o'quvchilarga professor-o'qituvchilar tomonidan yetkaziladi. Yakuniy nazorati baholash mezonlari sillabusning tarkibiy qismi deb qaraladi.

Oraliq va yakuniy nazorati baholash mezonlari moduldan kutilgan natijalarga qay darajada erishilganlikni o'lchab berishga va shunga munosib tegishli ballni qo'yish uchun asos bo'ladi.

Seminar mashg'ulotini olib boradigan professor-o'qituvchi baholash mezonlariga tayangan holda o'quvchilarni oraliq va yakuniy nazoratiga tayyorgarlik ko'rib borishlariga yo'naltirib boradi.

Professor-o'qituvchi nazorat ishini tekshirish so'ngida konstruktiv taqriz (feedback) beradi.

Professor-o'qituvchi har bir darsda moduldan va individual darsdan kutilayotgan natijalarni baholashga qaratilgan formativ baholash (formative assessment) o'tkazib boradi. Formativ baholashning maqsadi talabani ball ko'rinishida baholash emas, balki uning moduldan va individual darsdan kutilayotgan natijalarga erishish uchun qo'llab-quvvatlashdir. Bunda talabaning ishi, yozma yoki og'zaki javobiga individual yoki umumiy baho qo'yilmaydi. Unga tegishli shaklda konstruktiv taqriz berib boriladi.

O'quvchilar oraliq va yakuniy nazorat yozma ishlarini tayyorlashda **Akademik halollik va tadqiqot etikasi kodeksi** talablariga qat'iy rioya etishi talab qilinadi. Talaba tomonidan akademik halollik talablari buzilganda, jumladan mualliflik o'zlashtirilgan **(plagiat)** holatda, bunday yozma ishlarga nol ball qo'yiladi yoki oldin qo'yilgan nazorat reyting balli bekor qilinadi hamda bu talabaga nisbatan tegishli chora ko'rilishi uchun asos bo'ladi.

## VII. O'QUV MASHG'ULOTLARINI OLIB BORISH

Modul mashg'ulotlari ma'ruza va seminar shaklida tashkil etiladi. Ma'ruza va seminar mashg'ulotlarida qo'llanadigan metodlar modul va darsning maqsadi hamda kutilayotgan natijalaridan kelib chiqadi. Mashg'ulotlarni olib borishda professor-o'qituvchilar **fasilitator** rolida bo'lib, o'quvchilar tomonidan darsga tayyorgarlik ko'rib kelishda orttirgan bilimlarini yanada yuksaltirish va ularning soha bilan bog'liq ko'nikmalari va qadryatlarini shakllantirishga ko'maklashadilar.

Barcha darslar talaba diqqat markazida bo'lgan ta'lim (student-centred teaching) tamoyili asosida interaktiv metodlarni qo'llagan holda olib boriladi.

O'quvchilar ma'ruza va seminar darslarga tayyorgarlik ko'rib kelishlari kerak.

Ma'ruza mashg'ulotlarini olib borishda professor-o'qituvchilar tomonidan interaktiv ma'ruza va interaktiv savol-javob – Suqrot metodidan foydalaniladi. Bu

o‘quvchilarning tahliliy va tanqidiy fikrlashini rivojlanishiga, qiyosiy tahlil etish orqali muammo va masalalarga yechim topishga undaydi. Bunda muammoli savollarning, keyslarning aniq yechimi bo‘lmasligi mumkin.

Modulni o‘qitishda “Munozara”, “Muammoli vaziyat”, “Esse”, “Videorolik sharhi” kabi amaliy pedagogik usullardan foydalaniladi.

Professor-o‘qituvchilar ma’ruza mashg‘ulotining maqsadi va kutiladigan natijasidan kelib chiqib boshqa turli metodlarni qo‘llagan holda darslarni olib borishlari mumkin.

Seminar mashg‘ulotlari asosan o‘quvchilarning ma’ruza mashg‘ulotlarida olingan, seminarga tayyorgarlik ko‘rish natijasida o‘zlashtirgan bilimlar yuzasidan tanqidiy-tahliliy fikr yuritish hamda sohaga doir amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratiladi. Bular keys-study, taqdimotlar, kichik guruhlardagi muhokama, loyiha ishi, boshqa shu kabi metodlarni qamrab oladi.

Seminar mashg‘ulotlari individual va jamoaviy vazifalarning uyg‘unligi asosida, nazariy va amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan mashg‘ulot tarzida tashkil etiladi.

Modul mavzularining tarkibiy qismlari va mavzu doirasida tavsiya etiladigan adabiyotlar haqidagi batafsil ma’lumotlar ushbu sillabusning ilovasida keltirilgan. Mavzuning tarkibiy qismlari va tavsiya etilgan adabiyotlar professor-o‘qituvchilarga kafolatlangan akademik erkinlikdan kelib chiqib farqlanishi mumkin.

## VIII. MUSTAQIL TA’LIM

Mustaqil ta’lim talabaga ma’ruza va seminar mashg‘ulotiga tayyorgarlik ko‘rish, xususan, tavsiya etilgan adabiyotlarni o‘qish, kazuslarning yechimiga tayyorgarlik ko‘rish, ma’ruza va seminar mashg‘ulotida ulgurilmay qolingan qismni mustaqil o‘zlashtirish va imtihonlarga tayyorgarlik ko‘rish doirasida kechadi.

Professor-o‘qituvchilar har bir guruhning umumiy o‘zlashtirish darajasi, guruhning umumiy yoki o‘quvchilarning modulni o‘zlashtirish bilan bog‘liq ehtiyoji va talabidan kelib chiqib mustaqil ta’lim uchun individual va alohida topshiriq berishi mumkin.

## VI. MODUL REJASI

| № | Mavzu | Jami soatlar | Auditoriyada o‘tiladigan soatlar | | Mustaqil ta’lim soatlari |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | Ma’ruza | Seminar | |
| **1-semestr** | | | | | |
| 1. | 1-mavzu. Mikroiqtisodiyot va makroiqtisodiyot | 10 | 2 | 2 | 6 |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | moduliga kirish | | | | |
| 2. | 2-mavzu. Asosiy mikroiqtisodiy kategoriyalar. Talab va taklif nazariyasi | 14 | 2 | 4 | 8 |
| 3. | 3-mavzu. Elastiklik. Iste'molchi va ishlab chiqaruvchi tanlovi | 12 | 2 | 2 | 8 |
| 4. | 4-mavzu. Ishlab chiqarish xarajatlari | 11 | 2 | 2 | 7 |
| 5. | 5-mavzu. Foydani maksimallashtirish va raqobatli taklif | 12 | 2 | 2 | 8 |
| 6. | 6-mavzu. Bozor modellari va raqobat | 14 | 2 | 4 | 2 |
| 7. | 7-mavzu. Ishlab chiqarish omillari bozorlari | 12 | 2 | 2 | 8 |
| 8. | 8-mavzu. Kapital qo'yish va kapital bozori | 12 | 2 | 3 | 7 |
| 9. | 9-mavzu. Umumiy muvozanat va iqtisodiy samaradorlik | 12 | 2 | 2 | 8 |
| 10. | 10-mavzu. Assimetrik axborotli bozorlar | 11 | 2 | 2 | 7 |
| | **2-semestr** | | | | |
| 11. | 11-mavzu. Milliy iqtisodiyot va uning makroiqtisodiy ko'rsatkichlari | 10 | 2 | 2 | 6 |
| 12. | 12-mavzu. Iqtisodiy o'sish. | 14 | 2 | 2 | 8 |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 13. | 13-mavzu. Umumiy makroiqtisodiy muvozanat: Jami talab va jami taklif modeli | 12 | 2 | 2 | 8 |
| 14. | 14-mavzu. Budjet-soliq siyosati | 11 | 2 | 2 | 7 |
| 15. | 15-mavzu. Pul bozori: pulga bo'lgan talab, pul taklifi, pul bozorida muvozanat | 12 | 2 | 2 | 8 |
| 16. | 16-mavzu. Bank tizimi. Kredit-pul siyosati | 14 | 2 | 4 | 8 |
| 17. | 17-mavzu. Tovar va pul bozorida makroiqtisodiy muvozanat. IS-LM modeli | 14 | 2 | 2 | 8 |
| 18. | 18-mavzu. Iqtisodiy siklik rivojlanish: ishsizlik va inflyasiya | 12 | 2 | 3 | 7 |
| 19. | 19-mavzu. To'lov balansi | 12 | 2 | 2 | 8 |
| 20. | 20-mavzu. Valyuta kursi | 11 | 2 | 2 | 7 |
| | **Jami:** | **90** | **40** | **50** (10 assessment) | **150** |

**Mikroiqtisodiyot va makroiqtisodiyot moduli sillabusiga**

***ILOVA***

**1-mavzu. Mikroiqtisodiyot va makroiqtisodiyot moduliga kirish**

1. Mikroiqtisodiyot nazariyasining qo'llanilishi.
2. Makroiqtisodiyot nazariyasining qo'llanilishi.
3. Mikroiqtisodni nima uchun bilish kerak?
4. Mikroiqtisodiyot va makroiqtisodiyot fanining predmeti va fanning boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi.
5. Mikroiqtisodiyot va makroiqtisodiyotga oid huquq normalari va ularning

tasnifi.

***Zaruriy adabiyotlar:***

Robert Pindayk, Daniel Rubinfeld. Mikroiqtisod (Inglizchadan qisqartirib tarjima qilingan). Oliy o'quv yurtlari uchun qo'llanma. – T.: "Sharq", 2012. – 9-20 b.

O'lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik (lotin yozuvida). – T.: "Iqtisod-moliya" nashriyoti, 2014. – 8-24 b.

S.S.G'ulomov, R.X.Alimov, B.T.Salimov va boshqalar. Mikroiqtisodiyot. Darslik. — T.: «Sharq", 9-22 b.

E.Egamberdiyev. Mikroiqtisodiyot. Darslik. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa uyi, 2005. – 7-20 b.

***Tavsiya etiladigan adabiyotlar:***

Tarasevich L.S., Grebennikov P.I., Leusskiy A.I. Mikroekonomika. Uchebnik. 5-e izd. – M.: Yurayt, 2007. Str. 10-21.

McConnell, Brue, and Flynn's Economics: Principles, Problems, and Policies. McGraw-Hill October 24, 2008. 8-16 pages

Stankovskaya I.K., Strelets I.A. Ekonomicheskaya teoriya. Mikroekonomika i Makroekonomika – analiticheskaya baza dlya resheniya biznes-zadach. MVA. – M.: Eksmo, 2007. Str. 7-35.

Vechkanov G.S., Vechkanova G.R. Mikroekonomika. – SPb.: Piter, 2008. Str. 8-18.

Kosherova N.P. Mikroekonomika. – M.: Akademiya, 2003. Str. 5-16.

**2-mavzu. Asosiy mikroiqtisodiy kategoriyalar. Talab va taklif nazariyasi**

1. Asosiy mikroiqtisodiy kategoriyalar.
2. Bozor mexanizmi.
3. Talab va taklifning o'zgarishi.
4. Talab va taklifning o'zgaruvchanligi.
5. Uzoq va qisqa davrdagi o'zgaruvchanlik koeffitsiyentlarining taqqoslanishi.
6. Bozor sharoitining o'zgarishlarini baholash.
7. Narx ustidan davlat nazorati.

***Zaruriy adabiyotlar:***

Robert Pindayk, Daniel Rubinfeld. Mikroiqtisod (Inglizchadan qisqartirib tarjima qilingan). Oliy o'quv yurtlari uchun qo'llanma. – T.: "Sharq", 2012. – 22-51 b.

S.S.G'ulomov, R.X.Alimov, B.T.Salimov va boshqalar. Mikroiqtisodiyot. Darslik. — T.: «Sharq", 22-46 b.

E.Egamberdiyev. Mikroiqtisodiyot.Darslik. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa uyi, 2005. – 21-86 b.

***Tavsiya etiladigan adabiyotlar:***

Tarasevich L.S., Grebennikov P.I., Leusskiy A.I. Mikroekonomika. Uchebnik. 5-e izd. – M.: Yurayt, 2007. Str. 22-42.

McConnell, Brue, and Flynn's Economics: Principles, Problems, and Policies. McGraw-Hill October 24, 2008. 17-44 pages

Stankovskaya I.K., Strelets I.A. Ekonomicheskaya teoriya. Mikroekonomika i Makroekonomika – analiticheskaya baza dlya resheniya biznes-zadach. MVA. – M.: Eksmo, 2007. Str. 65-90.

Vechkanov G.S., Vechkanova G.R. Mikroekonomika. – SPb.: Piter, 2008. Str. 50-77.

Kosherova N.P. Mikroekonomika. – M.: Akademiya, 2003. Str. 20-38.

**3-mavzu. Iste'molchining xatti-harakati. Iste'molchi va ishlab chiqaruvchi tanlovi.**

1. Iste'moldagi afzallik.
2. Budjetning chegaralanganligi.
3. Iste'molchi tanlovi.
4. Naflilik konsepsiyasi.
5. Daromad va o'rnini bosishlik samarasi.

***Zaruriy adabiyotlar:***

S.S.G'ulomov, R.X.Alimov, B.T.Salimov va boshqalar. Mikroiqtisodiyot. Darslik. — T.: «Sharq", 66-91 b.

Robert Pindayk, Daniel Rubinfeld. Mikroiqtisod (Inglizchadan qisqartirib tarjima qilingan). Oliy o'quv yurtlari uchun qo'llanma. – T.: "Sharq", 2012. – 87-106 b.

E.Egamberdiyev. Mikroiqtisodiyot.Darslik. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa uyi, 2005. – 111-135 b.

***Tavsiya etiladigan adabiyotlar***:

McConnell, Brue, and Flynn's Economics: Principles, Problems, and Policies. McGraw-Hill October 24, 2008. 90-102 pages

Vechkanov G.S., Vechkanova G.R. Mikroekonomika. – SPb.: Piter, 2008. Str. 87-103.

Kosherova N.P. Mikroekonomika. – M.: Akademiya, 2003. Str. 40-72.

Stankovskaya I.K., Strelets I.A. Ekonomicheskaya teoriya. Mikroekonomika i Makroekonomika – analiticheskaya baza dlya resheniya biznes-zadach. MVA. – M.: Eksmo, 2007. Str. 101-109.

**4-mavzu. Ishlab chiqarish xarajatlari**

1. Ishlab chiqarish xarajatlari turlari va ularni aniqlash.
2. Qisqa muddatli ishlab chiqarish xarajatlari.
3. Uzoq muddatli ishlab chiqarish xarajatlari.
4. Qisqa va uzoq muddatli ishlab chiqarish xarajatlari chizmasi.

***Zaruriy adabiyotlar:***

S.S.G'ulomov, R.X.Alimov, B.T.Salimov va boshqalar. Mikroiqtisodiyot. Darslik. — T.: «Sharq", 121-131 b.

Robert Pindayk, Daniel Rubinfeld. Mikroiqtisod (Inglizchadan qisqartirib tarjima qilingan). Oliy o'quv yurtlari uchun qo'llanma. – T.: "Sharq", 2012. – 167-190 b.

E.Egamberdiyev. Mikroiqtisodiyot.Darslik. – T.: G'afur G'ulom nomidagi

nashriyot matbaa uyi, 2005. – 206-220 b.

***Tavsiya etiladigan adabiyotlar:***

Stankovskaya I.K., Strelets I.A. Ekonomicheskaya teoriya. Mikroekonomika i Makroekonomika – analiticheskaya baza dlya resheniya biznes-zadach. MVA. – M.: Eksmo, 2007. Str. 133-150.

Vechkanov G.S., Vechkanova G.R. Mikroekonomika. – SPb.: Piter, 2008. Str. 150-177.

McConnell, Brue, and Flynn's Economics: Principles, Problems, and Policies. McGraw-Hill October 24, 2008. 121-139 pages

Tarasevich L.S., Grebennikov P.I., Leusskiy A.I. Mikroekonomika. Uchebnik. 5-e izd. – M.: Yurayt, 2007. Str. 44-82.

**5-mavzu. Foydani maksimallashtirish va raqobatli taklif**

1. Firmaning qisqa va uzoq muddatli oraliqdagi faoliyati.
2. Talab, o'rtacha va eng yuqori daromad.
3. Qisqa muddatli ishlab chiqarish hajmini aniqlash.
4. Raqobatlashuqchi firmaning qisqa muddatli davrdagi taklifi.
5. Uzoq muddatli ishlab chiqarish hajmining tanlanishi.
6. Bozor qachon raqobatli bo'ladi?

***Zaruriy adabiyotlar:***

Robert Pindayk, Daniel Rubinfeld. Mikroiqtisod (Inglizchadan qisqartirib tarjima qilingan). Oliy o'quv yurtlari uchun qo'llanma. – T.: "Sharq", 2012. – 191-229 b.

S.S.G'ulomov, R.X.Alimov, B.T.Salimov va boshqalar. Mikroiqtisodiyot. Darslik. — T.: «Sharq", 131-133 b.

E.Egamberdiyev. Mikroiqtisodiyot.Darslik. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa uyi, 2005. – 220-233 b.

***Tavsiya etiladigan adabiyotlar:***

Stankovskaya I.K., Strelets I.A. Ekonomicheskaya teoriya. Mikroekonomika i Makroekonomika – analiticheskaya baza dlya resheniya biznes-zadach. MVA. – M.: Eksmo, 2007. Str. 219-230.

Vechkanov G.S., Vechkanova G.R. Mikroekonomika. – SPb.: Piter, 2008. Str. 178-235.

McConnell, Brue, and Flynn's Economics: Principles, Problems, and Policies. McGraw-Hill October 24, 2008. 140-157 pages

Tarasevich L.S., Grebennikov P.I., Leusskiy A.I. Mikroekonomika. Uchebnik. 5-e izd. – M.: Yurayt, 2007. Str. 100-132.

**6-mavzu. Bozor modellari va raqobat**

1. Bozordagi raqobat shakllari.
2. Monopol hokimiyat.
3. Bozor hokimichti sharoitida narxlarning shakllanishi.
4. Narxlar diversifikatsiyasi.
5. Monopolistik raqobat.

6. Oligopoliya.
7. Mahbus dilemmasi.

***Zaruriy adabiyotlar:***

Robert Pindayk, Daniel Rubinfeld. Mikroiqtisod (Inglizchadan qisqartirib tarjima qilingan). Oliy o'quv yurtlari uchun qo'llanma. – T.: "Sharq", 2012. – 256-314 b.

E.Egamberdiyev. Mikroiqtisodiyot.Darslik. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa uyi, 2005. – 233-254 b.

S.S.G'ulomov, R.X.Alimov, B.T.Salimov va boshqalar. Mikroiqtisodiyot. Darslik. — T.: «Sharq", 202-256 b.

***Tavsiya etiladigan adabiyotlar:***

Stankovskaya I.K., Strelets I.A. Ekonomicheskaya teoriya. Mikroekonomika i Makroekonomika – analiticheskaya baza dlya resheniya biznes-zadach. MVA. – M.: Eksmo, 2007. Str. 190-212.

Vechkanov G.S., Vechkanova G.R. Mikroekonomika. – SPb.: Piter, 2008. Str. 301-325.

McConnell, Brue, and Flynn's Economics: Principles, Problems, and Policies. McGraw-Hill October 24, 2008. 209-236 pages

Tarasevich L.S., Grebennikov P.I., Leusskiy A.I. Mikroekonomika. Uchebnik. 5-e izd. – M.: Yurayt, 2007. Str. 190-198.

**7-mavzu. Ishlab chiqarish omillari bozorlari**

1. Ishlab chiqarish omillarining raqobatli bozori.
2. Ishlab chiqarish omillarining raqobatli bozorida muvozanat.
3. Monopsoniya sharoitida ishlab chiqarish omillari bozori.
4. Ishlab chiqarish omillari bozorida yakka hokimlik.

***Zaruriy adabiyotlar:***

S.S.G'ulomov, R.X.Alimov, B.T.Salimov va boshqalar. Mikroiqtisodiyot. Darslik. — T.: «Sharq", 256-304 b.

Robert Pindayk, Daniel Rubinfeld. Mikroiqtisod (Inglizchadan qisqartirib tarjima qilingan). Oliy o'quv yurtlari uchun qo'llanma. – T.: "Sharq", 2012. – 320-350 b.

E.Egamberdiyev. Mikroiqtisodiyot.Darslik. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa uyi, 2005. – 304 b.

***Tavsiya etiladigan adabiyotlar:***

Tarasevich L.S., Grebennikov P.I., Leusskiy A.I. Mikroekonomika. Uchebnik. 5-e izd. – M.: Yurayt, 2007. Str. 192-222.

McConnell, Brue, and Flynn's Economics: Principles, Problems, and Policies. McGraw-Hill October 24, 2008. 278-344 pages

Stankovskaya I.K., Strelets I.A. Ekonomicheskaya teoriya. Mikroekonomika i Makroekonomika – analiticheskaya baza dlya resheniya biznes-zadach. MVA. – M.: Eksmo, 2007. Str. 365-390.

Vechkanov G.S., Vechkanova G.R. Mikroekonomika. – SPb.: Piter, 2008. Str. 234-244.

**8-mavzu. Kapital qo'yish va kapital bozori**

1. Tadbirkorlik va uning ko'rinishlari.
2. Asosiy va aylanma kapital.
3. Diskontlangan qiymat.
4. Investitsiyalarni jalb qilish yo'llari.

***Zaruriy adabiyotlar:***

Robert Pindayk, Daniel Rubinfeld. Mikroiqtisod (Inglizchadan qisqartirib tarjima qilingan). Oliy o'quv yurtlari uchun qo'llanma. – T.: "Sharq", 2012. – 352-365 b.

S.S.G'ulomov, R.X.Alimov, B.T.Salimov va boshqalar. Mikroiqtisodiyot. Darslik. — T.: «Sharq", 280-294 b.

E.Egamberdiyev. Mikroiqtisodiyot.Darslik. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa uyi, 2005. – 170-185 b.

***Tavsiya etiladigan adabiyotlar:***

Vechkanov G.S., Vechkanova G.R. Mikroekonomika. – SPb.: Piter, 2008. Str. 250-270.

Stankovskaya I.K., Strelets I.A. Ekonomicheskaya teoriya. Mikroekonomika i Makroekonomika – analiticheskaya baza dlya resheniya biznes-zadach. MVA. – M.: Eksmo, 2007. Str. 456-472.

Tarasevich L.S., Grebennikov P.I., Leusskiy A.I. Mikroekonomika. Uchebnik. 5-e izd. – M.: Yurayt, 2007. Str. 220-236.

**9-mavzu. Umumiy muvozanat va iqtisodiy samaradorlik**

1. Umumiy muvozanat tahlili.
2. Ayirboshlashdagi samaradorlik.
3. Ishlab chiqarishdagi samaradorlik.
4. Raqobatli bozorlar samaradorligi tahlili.
5. Nima uchun bozorlar samarasiz bo'ladi?

***Zaruriy adabiyotlar:***

Robert Pindayk, Daniel Rubinfeld. Mikroiqtisod (Inglizchadan qisqartirib tarjima qilingan). Oliy o'quv yurtlari uchun qo'llanma. – T.: "Sharq", 2012. – 368-400 b.

E.Egamberdiyev. Mikroiqtisodiyot.Darslik. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa uyi, 2005. – 254-269 b.

S.S.G'ulomov, R.X.Alimov, B.T.Salimov va boshqalar. Mikroiqtisodiyot. Darslik. — T.: «Sharq", 304-307 b.

***Tavsiya etiladigan adabiyotlar:***

Tarasevich L.S., Grebennikov P.I., Leusskiy A.I. Mikroekonomika. Uchebnik. 5-e izd. – M.: Yurayt, 2007. Str. 236-268.

McConnell, Brue, and Flynn's Economics: Principles, Problems, and Policies. McGraw-Hill October 24, 2008. 274-290 pages

Stankovskaya I.K., Strelets I.A. Ekonomicheskaya teoriya. Mikroekonomika i Makroekonomika – analiticheskaya baza dlya resheniya biznes-zadach. MVA. – M.:

Eksmo, 2007. Str. 473-482.

Vechkanov G.S., Vechkanova G.R. Mikroekonomika. – SPb.: Piter, 2008. Str. 274-299.

Kosherova N.P. Mikroekonomika. – M.: Akademiya, 2003. Str. 151-168.

**10-mavzu. Assimetrik axborotli bozorlar**

1. Noaniq sifat va "limon"lar bozori.
2. Bozor signallari.
3. Ma'naviy mas'uliyat.
4. Buyuurtmachi – agent muammosi.
5. Mehnat bozorida assimetrik axborot.

***Zaruriy adabiyotlar:***

Robert Pindayk, Daniel Rubinfeld. Mikroiqtisod (Inglizchadan qisqartirib tarjima qilingan). Oliy o'quv yurtlari uchun qo'llanma. – T.: "Sharq", 2012. – 402-429 b.

S.S.G'ulomov, R.X.Alimov, B.T.Salimov va boshqalar. Mikroiqtisodiyot. Darslik. — T.: «Sharq", 160-174 b.

E.Egamberdiyev. Mikroiqtisodiyot.Darslik. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa uyi, 2005. – 269-288 b.

***Tavsiya etiladigan adabiyotlar:***

McConnell, Brue, and Flynn's Economics: Principles, Problems, and Policies. McGraw-Hill October 24, 2008. 292-330 pages

Tarasevich L.S., Grebennikov P.I., Leusskiy A.I. Mikroekonomika. Uchebnik. 5-e izd. – M.: Yurayt, 2007. Str. 271-310.

Stankovskaya I.K., Strelets I.A. Ekonomicheskaya teoriya. Mikroekonomika i Makroekonomika – analiticheskaya baza dlya resheniya biznes-zadach. MVA. – M.: Eksmo, 2007. Str. 520-545.

Vechkanov G.S., Vechkanova G.R. Mikroekonomika. – SPb.: Piter, 2008. Str. 301-319.

Kosherova N.P. Mikroekonomika. – M.: Akademiya, 2003. Str. 170-203.

**11-mavzu. Milliy iqtisodiyot va uning makroiqtisodiy ko'rsatkichlari**

1. Milliy iqtisodiyot tushunchasi.
2. Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar.
3. Yalpi ichki mahsulot va yalpi milliy mahsulot ko'rsatkichlarini hisoblash.
4. Yalpi ichki mahsulotni hisoblashning amaliy ahamiyati.

***Zaruriy adabiyotlar:***

O'lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik (lotin yozuvida). – T.: "Iqtisod-moliya" nashriyoti, 2014. – 423 b.

Shodmonov SH., G'ofurov U., Hajiyev B. Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik(lotin yozuvida).. – T., «Iqtisod", 2009.

***Tavsiya etiladigan adabiyotlar:***

Alain Anderton. Economics AS Level, Causeway Press, 2010, 56-80 pages.

McConnell, Brue, and Flynn's Economics: Principles, Problems, and Policies.

McGraw-Hill October 24, 2008. 13-94 pages.

David Begg. Foundations of Economics, 5th ed, McGraw Hill Education, 2017. 70-85 pages.

Kazakov A.P., Minayeva N.V. Ekonomika (Mikro, makro- i prikladnaya ekonomika), M.: 2005. Str. 70-97.

**12-mavzu. Iqtisodiy o'sish.**

1. Nominal va real yalpi ichki mahsulot
2. Iqtisodiy o'sish tushunchasi
3. Iqtisodiy o'sish omillari va turlari
4. Iqtisodiy o'sish samaradorligi

***Zaruriy adabiyotlar:***

O'lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik (lotin yozuvida). – T.: "Iqtisod-moliya" nashriyoti, 2014. – 423 b.

Shodmonov SH., G'ofurov U., Hajiyev B. Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik(lotin yozuvida).. – T., «Iqtisod", 2009.

***Tavsiya etiladigan adabiyotlar:***

McConnell, Brue, and Flynn's Economics: Principles, Problems, and Policies. McGraw-Hill October 24, 2008. 143-180 pages.

David Begg. Foundations of Economics, 5th ed, McGraw Hill Education, 2017. 96-109 pages.

Kazakov A.P., Minayeva N.V. Ekonomika (Mikro, makro- i prikladnaya ekonomika), M.: 2005. Str. 133-194.

**13-mavzu. Umumiy makroiqtisodiy muvozanat: Jami talab va jami taklif modeli**

1. Umumiy makroiqtisodiy muvozanat.
2. Jami talab modeli – AD.
3. Jami talab va unga ta'sir etuvchi omillar.
4. Jami taklif: klassik va keynsian modellari.
5. Jami taklif modeli – AS.
6. AD-AS modeli va uning ahamiyati.

***Zaruriy adabiyotlar:***

O'lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik (lotin yozuvida). – T.: "Iqtisod-moliya" nashriyoti, 2014. – 423 b.

Shodmonov SH., G'ofurov U., Hajiyev B. Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik(lotin yozuvida).. – T., «Iqtisod", 2009.

***Tavsiya etiladigan adabiyotlar:***

McConnell, Brue, and Flynn's Economics: Principles, Problems, and Policies. McGraw-Hill October 24, 2008. 181-200 pages.

David Begg. Foundations of Economics, 5th ed, McGraw Hill Education, 2017. 153-187 pages.

Kazakov A.P., Minayeva N.V. Ekonomika (Mikro, makro- i prikladnaya ekonomika), M.: 2005. Str. 219-248.

**14-mavzu. Budjet-soliq siyosati**

1. Makroiqtisodiy siyosat.
2. Davlatning budjet-soliq tizimi.
3. Budjet-soliq siyosatining qisqa va uzoq muddatli maqsadlari, uning vositalari. Davlat xarajatlari multiplikatori.
4. Soliq multiplikatori. Balanslashtirilgan budjet multiplikatori.
5. Diskretsion va nodiskretsion fiskal siyosat. Iqtisodiyotning ichki o'rnatilgan stabilizatorlari.
6. Budjet ortiqchaligining iqtisodiyotga ta'siri. Budjet kamomadini moliyalashtirishning inflyasion va noinflyasion usullari. Senoraj. Siqib chiqarish effekti.

***Zaruriy adabiyotlar:***

O'lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik (lotin yozuvida). – T.: "Iqtisod-moliya" nashriyoti, 2014. – 423 b.

Shodmonov SH., G'ofurov U., Hajiyev B. Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik(lotin yozuvida).. – T., «Iqtisod", 2009.

***Tavsiya etiladigan adabiyotlar:***

McConnell, Brue, and Flynn's Economics: Principles, Problems, and Policies. McGraw-Hill October 24, 2008. 224-270 pages.

David Begg. Foundations of Economics, 5th ed, McGraw Hill Education, 2017. 210-252 pages.

Kazakov A.P., Minayeva N.V. Ekonomika (Mikro, makro- i prikladnaya ekonomika), M.: 2005. Str. 259-280.

**15-mavzu. Pul bozori: pulga bo'lgan talab, pul taklifi, pul bozorida muvozanat**

1. Pulga bo'lgan talab va taklif.
2. Pul bozorida muvozanat.
3. Pul tizimi va uni boshqarishda yurisprudensiyaning o'rni.
4. Pul va uning turlari.
5. Pul multiplikatori.

***Zaruriy adabiyotlar:***

O'lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik (lotin yozuvida). – T.: "Iqtisod-moliya" nashriyoti, 2014. – 423 b.

Shodmonov SH., G'ofurov U., Hajiyev B. Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik(lotin yozuvida).. – T., «Iqtisod", 2009.

***Tavsiya etiladigan adabiyotlar:***

McConnell, Brue, and Flynn's Economics: Principles, Problems, and Policies. McGraw-Hill October 24, 2008. 271-296 pages.

David Begg. Foundations of Economics, 5th ed, McGraw Hill Education, 2017. 305-326 pages.

Kazakov A.P., Minayeva N.V. Ekonomika (Mikro, makro- i prikladnaya ekonomika), M.: 2005. Str. 320-356.

**16-mavzu. Bank tizimi. Kredit-pul siyosati**

1. Bank tizimi.
2. Markaziy bank va tijorat banklari.
3. Kredit-pul siyosatining maqsadlari va vositalari.
4. Kredit-pul siyosatining mexanizmi, uning soliq va valyuta siyosati bilan aloqadorligi.

***Zaruriy adabiyotlar:***

O'lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik (lotin yozuvida). – T.: "Iqtisod-moliya" nashriyoti, 2014. – 423 b.

Shodmonov SH., G'ofurov U., Hajiyev B. Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik(lotin yozuvida).. – T., «Iqtisod", 2009.

***Tavsiya etiladigan adabiyotlar:***

McConnell, Brue, and Flynn's Economics: Principles, Problems, and Policies. McGraw-Hill October 24, 2008. 330-345 pages.

David Begg. Foundations of Economics, 5th ed, McGraw Hill Education, 2017. 380-403 pages.

Kazakov A.P., Minayeva N.V. Ekonomika (Mikro, makro- i prikladnaya ekonomika), M.: 2005. Str. 287-300.

**17-mavzu. Tovar va pul bozorida makroiqtisodiy muvozanat. IS-LM modeli**

1. IS-LM modelining asosiy o'zgaruvchilari va tenglamasi. IS va LM egri chiziqlari.
2. IS-LM modeli doirasida budjet-soliq va pul-kredit siyosatining samaradorligi
3. IS-LM modelidan jami talab egri chizig'iga ko'chish.

***Zaruriy adabiyotlar:***

O'lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik (lotin yozuvida). – T.: "Iqtisod-moliya" nashriyoti, 2014. – 423 b.

Shodmonov SH., G'ofurov U., Hajiyev B. Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik(lotin yozuvida).. – T., «Iqtisod", 2009.

***Tavsiya etiladigan adabiyotlar:***

McConnell, Brue, and Flynn's Economics: Principles, Problems, and Policies. McGraw-Hill October 24, 2008. 297-313 pages.

David Begg. Foundations of Economics, 5th ed, McGraw Hill Education, 2017. 404-429 pages.

Kazakov A.P., Minayeva N.V. Ekonomika (Mikro, makro- i prikladnaya ekonomika), M.: 2005. Str. 350-375.

**18-mavzu. Iqtisodiy siklik rivojlanish: ishsizlik va inflyasiya**

1. Iqtisodiy sikl va asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar dinamikasi.

2. Ishsizlik turlari. Ishsizlikning tabiiy darajasi.
3. Ouken qonuni.
4. Inflyasiya va uning turlari.
5. Inflyasiya bilan ishsizlik orasidagi o'zaro bog'lanish.
6. Fillips egri chizig'i.

***Zaruriy adabiyotlar:***

O'lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik (lotin yozuvida). – T.: "Iqtisod-moliya" nashriyoti, 2014. – 423 b.

Shodmonov SH., G'ofurov U., Hajiyev B. Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik(lotin yozuvida).. – T., «Iqtisod", 2009.

***Tavsiya etiladigan adabiyotlar:***

McConnell, Brue, and Flynn's Economics: Principles, Problems, and Policies. McGraw-Hill October 24, 2008. 371-390 pages.

David Begg. Foundations of Economics, 5th ed, McGraw Hill Education, 2017. 430-438 pages.

Kazakov A.P., Minayeva N.V. Ekonomika (Mikro, makro- i prikladnaya ekonomika), M.: 2005. Str. 377-387.

**19-mavzu. To'lov balansi**

1. To'lov balansining makroiqtisodiy mohiyati, asosiy moddalari va tuzilishi.
2. To'lov balansi hisoblarining o'zaro aloqadorligi.
3. Makroiqtisodiy siyosatning to'lov balansi holatiga ta'siri.
4. To'lov balansidagi kamomad va tanazzul.

***Zaruriy adabiyotlar:***

O'lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik (lotin yozuvida). – T.: "Iqtisod-moliya" nashriyoti, 2014. – 423 b.

Shodmonov SH., G'ofurov U., Hajiyev B. Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik(lotin yozuvida).. – T., «Iqtisod", 2009.

***Tavsiya etiladigan adabiyotlar:***

McConnell, Brue, and Flynn's Economics: Principles, Problems, and Policies. McGraw-Hill October 24, 2008. 394-410 pages.

David Begg. Foundations of Economics, 5th ed, McGraw Hill Education, 2017. 439-468 pages.

Kazakov A.P., Minayeva N.V. Ekonomika (Mikro, makro- i prikladnaya ekonomika), M.: 2005. Str. 392-401.

**20-mavzu. Valyuta kursi**

1. Valyuta bozori. Moslashuvchan va qat'iy belgilangan valyuta kurslari tizimi.
2. Makroiqtisodiy siyosatning barqaror real valyuta kursi dinamikasiga ta'siri.
3. Moslashuvchan va qat'iy belgilangan valyuta kurslari tartiblarining nisbiy samaradorligi.

***Zaruriy adabiyotlar:***

O'lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik (lotin yozuvida). – T.: "Iqtisod-moliya" nashriyoti, 2014. – 423 b.

Shodmonov SH., G'ofurov U., Hajiyev B. Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik(lotin yozuvida).. – T., «Iqtisod", 2009.

***<u>Tavsiya etiladigan adabiyotlar:</u>***

McConnell, Brue, and Flynn's Economics: Principles, Problems, and Policies. McGraw-Hill October 24, 2008. 420-435 pages.

David Begg. Foundations of Economics, 5th ed, McGraw Hill Education, 2017. 470-502 pages.

Kazakov A.P., Minayeva N.V. Ekonomika (Mikro, makro- i prikladnaya ekonomika), M.: 2005. Str. 402-428.